

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI FAOLIYATINI TASHKIL
ETISH TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 15-fevraldagi PF-4956-sonli Farmoni ijrosini ta‘minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining samarali faoliyatini ta‘minlash maqsadida:

2. Xalq ijodiyoti va madaniy-ma‘rifiy ishlar respublika ilmiy- metodik markazi va uning hududiy markazlari, Respublika metodika va axborot markazi tugatilsin, uning negizida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida quyidagi davlat muassasalari tashkil etilsin:

Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi;

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazining tuzilmasi 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziriga, zarur hollarda, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazining tuzilmasiga xodimlarning belgilangan umumiy cheklangan soni va mehnatga haq to‘lash jamg‘armasi doirasida o‘zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

3. Toshkent shahar hokimligi tasarrufida bo‘lgan “Istiqlol” va “Turkiston” San‘at saroylari O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufiga topshirilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti yillik parametrlarida “Istiqlol” va “Turkiston” san‘at saroylari uchun, ularning shaxsiy daromadlari bilan qoplanmaydigan qismida, san‘at saroylari ta‘minoti (moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, xodimlarning ish haqini to‘lash, binolarni qo‘riqlash bo‘yicha xizmatlarga haq to‘lash va boshqalar) xarajatlarini moliyalashtirishga budjet mablag‘lari ajratilishini nazarda tutsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi avval O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi uchun o‘rnatilgan aloqa vositalari, shu jumladan hukumat aloqa vositalarining madaniyat yo‘nalishiga taalluqli qismini O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi ixtiyorida saqlab qolsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining mablag‘lari O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib belgilansin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ikki hafta muddatda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi to‘g‘risidagi Nizomni hamda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san‘atni rivojlantirish budjetdan tashqari jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi haqidagi Nizomni tasdiqlasin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi:

bir oy muddatda Madaniyat vazirligining hududiy boshqarmalari to‘g‘risidagi namunaviy nizomlar belgilangan tartibda ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini ta‘minlasin;

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Mehnat vazirligi bilan kelishilgan holda ikki oy muddatda teatrlar, konsert-tomosha muassasalari, muzeylar va boshqa madaniy-ma‘rifiy muassasalarning yangilangan namunaviy shtatlarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi ikki oy muddatda manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda:

madaniyat sohasi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va moliyalashtirish tartibini takomillashtirish, shuningdek har bir madaniyat va aholi dam olish markazlarida kutubxonalar tashkil qilish bo‘yicha takliflarni;

o‘zbek raqsi turli yo‘nalishlarining boy tarixiy an‘analarini tiklash va avaylab saqlash, ularni zamonaviy san‘at va xoreografiyaning ilg‘or uslublari va yutuqlari bilan boyitishni nazarda tutadigan, maxsus ta‘lim va malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishni, o‘zbek xalqining o‘ziga

xos madaniyati va yuksak ma'naviyatini, takrorlanmas milliy rang-barangligini qamrab olgan o'zbek raqsini keng ommalashtirish hamda targ'ib qilishni yanada rivojlantirishning o'rta muddatli chora-tadbirlar dasturini Vazirlar Mahkamasiga kiritсин:

9. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining markaziy apparati Toshkent shahri, Taras Shevchenko ko'chasi, 1-uyda joylashtirilsin.

10. Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Toshkent shahri konsert zallari va san'at saroylarini boshqarish tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2004-yil 30-yanvardagi 43-sonli qarori (O'zbekiston Respublikasining QM, 2004-yil, 4-son, 44-modda);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2004-yil 30-sentabrdagi 455-sonli qarori (O'zbekiston Respublikasining QM, 2004-yil, 40-41-sonlar, 436-modda);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining Nizomini tasdiqlash to'g'risida" 2005-yil 5-apreldagi 96-sonli qarori (O'zbekiston Respublikasining QM, 2005-yil, 14-son, 104-modda);

11. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Adliya vazirligi, boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda:

qonun hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o'zgartish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritсин;


ilgari qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

12. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2017-yil 15-fevral,
PQ-2778-son

**Madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish respublika ilmiy-metodik markazi
TUZILMASI**



Umumiy cheklangan soni (yordamchi xodimlarsiz) — 34 nafar, shu jumladan boshqaruv xodimlar soni — 11 nafar